



## AXBOROTNI EFIRGA UZATISHDA BOSHLOVCHI NUTQIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Qurbanov N.

O'zJOKU OJK 2-kurs magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqola OAV tili, uning qonun-qoidalari, bugungi kundagi qiyofasi, shuningdek tildan foydalanishda boshlovchi nutqiga qo'yiladigan talablar, uning jamiyatga ta'sir etish prinsipi, nutqning salbiy va ijobjiy ta'sir nuqtalari haqida bo'lib, axborot tizimini takomillashtirish, uni tahlil qilish, ma'lumotni to'g'ri yoritish va sodda tushintirish, nutq va ovoz orqali audiotoriyaga ijobjiy ta'sir etish usullarini o'rganish uchun tahlilga tayyorlandi.

**Kalit so'z:** Termin, jargon, funksional, jargonlashgan, audiotoriya, blok.

OAV ning kengayib borayotgani bugungi kunning imkoniyatlari kengayib borishi bilan bir qatorda OAV inson xatti harakati, ongi va dunyoqarashiga ham ta'sir etib boradi. F. Mo'minov bu haqida shunday yozadi: "Matbuot insonga matn orqali (mantiqiy) ta'sir qilsa, radio ham matn, ham ovoz bilan, televideenie esa, matn, ovoz bilan birga, tasvir ham qo'shilgan holda ta'sir qiladi. Shuning uchun televideeniye audiotoriyaga ta'sir etish borasida qisqa vaqt - 20-30 yil ichida boshqa vositalardan o'zib ketdi va yetakchi vosita bo'lib qoldi"<sup>1</sup>

Endilikda esa bu fikr ham o'z kuchini yo'qotib, televideeniyen ham ortda qoldirib borayotgan internet tarmoqlaridagi bloklar yetakchilikni toboro qo'lga kiritib bormoqda. Televideenyeda uzatilayotgan voqeja va hodisalarining yuzlab va minglab insonlarni qamrab olgan audiotoriyasi bo'lsa, internet tarmoqlarining audiotoriyalari esa millionlab kuzatuvchi va tuinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Ammo shunday bo'lsada internet tarmoqlaridagi nutq va til uyg'unligi bir xilda, qoidalarga asoslab tartibga solinmagan. Bu audiotoriya "sahnasida" hamma o'z bilganicha nutq qiladi va tildan ham o'z bilganicha foydalanadi.

Shunday ekan teleboshlovchi nutq va tilning har tomonlama qonuniyatlaridan mukammal bohabar bo'lishi shart. Qolaversa birgina o'zbek tilidan tashqari boshqa tillardan kirib kelayotgan turli terminlarni ham to'g'ri ifoda eta olishi, uning ma'no – mohiyatini to'la anglagan bo'lishi talab etiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, terminlarni haddan tashqari ko'p qo'llash ham yaxshi emas.

Teleboshlovchi qachonki so'zni noto'g'ri talaffuz qilar ekan, "uning savodi kuchsiz ekan" degan xulosa paydo bo'ladi. Aslida bu xulosa ham to'la qonli asosga ega emas. Chunki ba'zan boshqa sabablarga ko'ra ham boshlovchida xatoliklar kuzatilishi mumkin.

<sup>1</sup> "Ommaviy axborot vositalari to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. –Toshkent, 1997.



Bundan bir necha yillar oldin o‘zbek televideniyelaridan birida qaysidir serial aks etgan qisqa reklamani sharhlayotgan OAV xodimi eferga uzatilishi vaqtini “bugun” deb e’lon qilib, xatolikka yo‘l qo‘yadi va shu o‘zining adashib gapirganini payqab qolgan xodim, shu yerning o‘zidayoq “bugun” so‘zining ortidan, “ertaga” so‘zini qo‘shib qo‘yadi.

Xatoliklarning barchasi ham savod darajasi past ekanligini ko‘rsatmaganidek, teleboshlovchida ham shunga o‘xshash xatoliklar yuzaga kelsa bu uning savodsiz ekanligidan emas.

Nutq madaniyatini egallash ayniqsa tildan mahorat bilan foydalana olish, birinchi navbatda, aynan jurnalistlar uchun muhim. Zero, qalam ahli uchun til faqat professional faoliyat quroligina emas, balki OAV tili audiatoriya tomonidan ongli yoki g‘ayrishuuriy tarzda o‘zlashtirilib olinadigan o‘ziga xos “namunaviy” til bo‘lib. Ana shu namunani, ya’ni til me’yorlarini OAV orqali o‘zlashtirgan audiatoriya keyinchalik uni o‘z nutqida keng qo‘llaydi, bu, o‘z navbatida, jamiyatda yangi, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri til me’yorlarining qaror topishiga olib keladi. Shu boisdan ham asosiy OAV adabiy tilni shakllantirishga alohida e’tibor qaratadilar, muayyan ma’noda mamlakatda ona tili rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadilar, ya’ni adabiy tilning zamonaviy me’yorlarini shakllantirish va tarqatishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.<sup>2</sup>

Uzoq vaqt nutq so‘zlashda notiqning ovozida bo‘g‘ilish paydo bo‘lsa, bu notiqning nutq me’yoriy qoidalariga amal qilmaganini, nutq sistemalaridan to‘g‘ri foydalana olmagani va diofragmadan noto‘g‘ foydalanganining belgisidir. Qanchalik uzoq nutq so‘zlanmasin inson me’yoriy qoidalarga to‘g‘ri amal qilsa charchoq va ovozda xiralashish, bo‘g‘ilish holatlari kuzatilmaydi.

Chaqaloqlar ko‘p va uzoq yig‘laydi, lekin nega charchab qolishmaydi? Bu savolning oltinga teng birgina javobi borki: Alloh ularni eng to‘g‘ri diofragmadan foydalanib yig‘lashini ta’minlab qo‘yganligidir. Aslida har bir inson juda katta va kuchli ovoz bilan dunyoga keladi va shu ovoz ularning asosiy quroli hisoblanadi. Chaqaloqlarga nima yetishmovchilik bo‘lsa ham ular faqat ovozdan foydalanib, yig‘lab nimadir xohlayotganini shu yig‘i orqali ifoda etadi. Ammo ha deganda kuchli ovoz bilan yig‘lasa ham charchab qolishmaydi. Chunki yuqorida keltirganimizdek ular eng afzal va to‘g‘i tanlangan diofragmada ovoz chiqarishadi, shu sababli ovozi ularni qiy nab qo‘ymaydi.

<sup>2</sup> Teshaboyeva D.M. “Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi”. 16-b.



Jurnalist suhbatdoshi yoki audiatoriyanı his qilmay turib amalga oshirayotgan nutqining hechkimga keragi bo‘lmaydi. Nutq qilishda yod olib gapirilayotgan, qaysidir ustanovkalar asosida tizimlashtirilgan nutq qilish tinglovchini zeriktirib qo‘yadi. Misol tariqasida aytish mumkinki: ilmiylashgan fan uchun olib borilayotgan nutq faqatgina shu soxa odamlarigagina qiziq bo‘ladi. Agarda bu ilmiy nutq bu soha haqida hech bir ma’lumotga ega bo‘lmaning tinglovchilar o‘rtasida yangrasa ular bunday nutqni tinglab, ruhan zo‘riqishni his qiladi, yoki uyqulari kela boshlaydi. Shunday ekan jurnalist (teleboshlovchi) kamera yonida nutq qilish vaqtida, ko‘z o‘ngida turgan kamerani emas, balki kamera ortida kuzatib turgan o‘nlab, yuzlab, minglab, balki millionlab tomoshabinni his qilishi shart, agarda his qilmas ekan qilayotgan nutqi teletomoshabinning qimmatli vaqtini boshqa bir teleko‘rsatuvga qaratishiga, televizorning birgina tugmasini bosib, boshqa dasturlarni kuzatishiga sabab bo‘ladi.

Jurnalist nutqi audiatoriya tomonidan me’yoriy nutq sifatida qabul etilgani uchun o‘quvchi, tinglovchi, yoki tomoshabin, ayniqsa, yoshlar o‘zlarining sevimli jurnalistlari, tele- va radioboshlovchilariga taqlid etishga intiladilar, ularning nutqinin “ko‘chira boshlaydilar”. Ana shunda audiatoriya til vositasida nutqiy ta’sir qilinadi.<sup>3</sup>

Eferda uzatilgan xabar va lavhalar ta’sir kuchi qay darajada ekanligiga qarab, uning tarqalish tezligi ham shu qadar bo‘ladi. Ba’zan juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan axborotlar jamiyat orasida sust tarqalishiga uni izohlashdagi til va nutqning kamchiliklari ham sabab bo‘lishi mumkin. Yaqin tarixga nazar tashlasak, televideniyeda uzatilgan axborotni audiatoriya qayta ko‘rishi uchun shu axborotning qayta eferga chiqish vaqtini kutishi kerak edi. Hozirgi kunda esa bunday qilib vaqt sarflashga xojat yo‘q. Chunki internet tarmoqlari orqali kuzatuvchi o‘zi xohlagan vaqt kuzatishi mumkin. Qaytadan ko‘rish istagini oshirishda esa katta ahamiyat kasb etusvchi omil voqeani sharhlashdagi til va nutqning ta’sirchanligidir.

M.P. Senkevich ta’kidlaganidek: “Jamiyatga axborot almashinuvining kuchayishi nutq faoliyati, nutq madaniyati, nutq bilan bog‘liq xulq jarayonlarini tahlil etishga qiziqishning ortishi bilan birgalikda kechadi, bu esa iste’molchiga nutqiy ta’sirning yuqori samarasini ta’minlovchi amaliy tavsiyalarini ishlab

<sup>3</sup> Teshaboyeva D.M. “Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi”. 16-b.



chiqishga xizmat qiladi".<sup>4</sup> Shu bois jurnalistlar uchun nutq madaniyatini puxta egallash masalasi birinchi o‘ringa chiqmoqda.<sup>5</sup>

Teleboshlovchi nutqning birgina nazariy emas, balki amaliy jihatlariga ham e’tibor qaratib, uni o‘z faoliyatida qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Nutq qoidalarini chuqur o‘zlashtirib, uni maliy va nazariy tomonlarning har ikkisini bir vaqtda qo‘llay olish axborot ta’siri va sifatining oshishiga yordam beradi.

Nutq madaniyatiga oid bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollanish davr talabiga aylangani uchun uni ilmiy jihatdan jiddiy o’rganish OAV, aniqrog‘i, radio yaratilganidan keyin asta-sekin avj oldi. Nutq madaniyati ta’limoti tilning adabiy va noadabiy shakllari, statik va dinamik holatlari, uning funksional turlari haqidagi qarashlarning yaratilishi bilan birgalikda rivojlanib boradi.

Teleboshlovchi dasturdan o‘rin olgan xabar va lavhalarni sharhlar ekan uni kuzatib, axborotni qabul qilayotgan audiaroriyaga sezilmagan holda ta’sir ko‘rstadi. Bu borada esa tilimizga bo‘lgan qonunchilikda belgilangan me’yorlarni ham hisobga olish shart.

Olim N. Jumaxo‘ja “Adabiy tilimiz asoschisi” nomli maqolasida shunday yozadi: “bugunda radio, televideniyeda, gazetava jurnallarda, nashr ishlarida adabiy til me’yorlaridan chekinish, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuniga itoat etmaslik, uni moddama-modda, izchil amalga oshirishda sustkashlik ko‘rsatish, adabiy til me’yorlariga asoslangan o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalariga rioya qilmaslik tamoyillari sezilmoqda”.<sup>6</sup> Bu esa OAV xodimi sifatida ushbu ishlarni amalga oshirayotgan shaxsning savod darajasiga borib taqaladi. Bundan boshqa sabablar esa o‘z-o‘zidan keying darajaga suriladi. Chunki savod darajasi yetarlicha bo‘limganligi bois ketma-ket xatoliklar uzlusiz takrorlanaveradi. Savodxonligi sust bo‘lgan xodimga esa bu xolat oddiy ko‘rinsada, audiatoriya uchun salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

Nutqimizda to‘liq funksional, noto‘liq funksional, o‘rtacha adabiy, adabiy jargonlashgan va maishiy nutq madaniyati turlari mavjud. Bunday xilma-xillikni yuzaga kelishi muayyan til vakillari adabiy tilni turli darajada o‘zlashtirganliklari sabablidir. Bunday mazmundagi mulohazalar hozirgi nutq madaniyatining umumiyligi.

<sup>4</sup> Senkevich M.P. Kultura radio- i televizionnoy rechi. –M.:Vissaya shkola, 1997.-S. 96

<sup>5</sup> Teshaboyeva D.M. “Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi”. 17-b.

<sup>6</sup> “Navoiyga armug‘on”. Maqolalar to’plami. – Toshkent: Fan, 2004. 136-b.



holati barcha rivojlangan tillar miqyosida qoniqarsiz ekanligi bilan ham tasdiqlanadi<sup>7</sup>.

Hozirgi kunda OAV orqali turli tillardan ko‘plab terminlar adabiy tilga kirib kelmoqda. Terminlarning kirib kelishi ham adabiy tilga o‘z ta’sirini ko‘rsatayapti. Bu borada ham olimlarning bir qancha ijobiylari va salbiy fikrlari mavjud.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. “Ommaviy axborot vositalari to‘grisida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. –Toshkent, 1997.
2. Teshaboyeva D.M. “Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi”.
3. Senkevich M.P. Kultura radio- i televizionnoy rechi. –M.:Vishshaya shkola, 1997.-S.
4. “Navoiyga armug’on”. Maqolalar to’plami. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Neshimenko G.P. Dinamika rechevogo standarta sovremennoy publichnay kommunikatsi: problemi,tendensi ravitiya // “Voprosi yazikoznaniya”.

<sup>7</sup> Neshimenko G.P. Dinamika rechevogo standarta sovremennoy publichnay kommunikatsi: problemi, tendensi ravitiya // “Voprosi yazikoznaniya”. – Ch. L. —M., 2001. – S.98-133